

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURDIYEVA MUQADDAS UMAROVNA

**SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Turdiyeva Muqaddas Umarovna

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish..... 3

Турдиева Муқаддас Умаровна

Совершенствование механизма стимулирования инновационной деятельности на промышленных предприятиях..... 29

Turdieva Mukaddas Umarovna

Improving the incentive mechanism of innovative activity in industrial enterprises..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURDIYEVA MUQADDAS UMAROVNA

**SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt1652 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarova Fotima Xakimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muratova Shoxista Nigmatullayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qodirov Abdurashid Majitovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 202_ yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 232-01-49, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 232-01-49, e-mail: tdu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 202_ yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.
(202_ yil « ___ » _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

K.A. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

M.K. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.f.n. (PhD), dotsent

A.U. Burxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, sanoat korxonalarini rivojlantirishni innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Dunyo bozoridagi ilmiy hajmdor mahsulotlarning 36 foizi AQSh, 30 foizi Yaponiya, 22 foizi Xitoy davlatiga to‘g‘ri keladi. Har bir million aholi soniga nisbatan ilmiy tadqiqot ishlari bilan band bo‘lganlar soni bo‘yicha 1-o‘rinda Isroil 8250 nafar, 2-o‘rinda Janubiy Koreya 7113 nafar, 3-o‘rinda esa Yaponiya 5210 nafarni tashkil etadi”¹. Bu esa, samarali innovatsion boshqaruv tizimini rag‘batlantirish va rivojlantirish kabi muhim masalalarni hal etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Jahonda innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish, innovatsion faoliyat samaradorligini ta‘minlashda rag‘batlantirishni amalga oshirish omillarini baholash, sanoat korxonalarini, xususan, to‘qimachilik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning yo‘nalishlari va zamonaviy tendensiyalarini, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishni moliyalashtirishni tadqiq etish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda KPI qo‘llash usullarini ishlab chiqish, hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab berish borasidagi ishlarga alohida urg‘u berilmoqda. Amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida sanoat korxonalarini, xususan to‘qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

O‘zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o‘tishi uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko‘paytirishga asoslanadi.

To‘qimachilik sanoatining aholini keng iste‘mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdagi muhim ahamiyatiga qaramay, uni innovatsion faoliyatni boshqarishning ko‘pgina nazariy va amaliy jihatlari yetarli darajada o‘rganilmay qolmoqda. Bu borada tarmoqda innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishni modernizatsiyalashtirish shartlariga javob beruvchi innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son, 2018-yil 14-dekabrda “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5285-son, 2019-yil 22-yanvardagi “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 5308-son farmonlari, 2016-yil 21-dekabrda “2017–2019-yillarda to‘qimachilik va tikuv-

¹ <https://www.worldbank.org>

trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida” PQ–2687-son, 2019-yil 5-maydagi “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–3697-son, 2019-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–3698-son, 2019-yil 16-sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4453-son, 2020-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4186-son, 2020-yil 16-sentabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4453-son, 2021-yil 5-maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–5989-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-sentabrdagi “Innovatsion faoliyatni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 721-son qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish masalasi o‘zbekistonlik hamda xorijlik olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Bu borada L.Krkosa, X.P.Lankes, K.Meyer, T.Moran, X.Tomann va boshqa xorij olimlarning ilmiy ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin². Shuningdek, innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish masalasi Isabel Buil, Sara Catalan, Eva Martinez, Pascal Paille, Jorge H.Meija Morelos, Vincent Blok, Renate Wesselink, Oldrich Studynka, Ron Kemp³, Oliver Masakure⁴ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH olimlari A.N.Boldarev, A.A.Bovin, A.G.Ivanenko, E.A.Lapteva, A.N.Ogoleva, R.A.Fatxutdinov, N.M.Tsisarova, L.Ye.Cherednikova, V.Y.Yakimovich⁵ning asarlarida ham innovatsion jarayonlarni boshqarishga

² Moran T., «Foreign Direct Investment and Development: The new policy agenda for developing countries and economies in transition». Washington, DC. 1998; Lankes H.P. and Venables A.J., «Foreign Direct Investment in Economic Transition: the Changing Pattern of Investments». *Economics Transition*, 1996, Vol. 4, No. 2, pp. 331 - 347.; Meyer K., «Foreign Direct Investment in Economies in Transition». Cheltenham, England. 1998; Krkosa L. FDI financing of capital formation in Central and Eastern Europe, London. EBRD working paper number 67, 2001.; Томанн Х. Прямые иностранные инвестиции в переходные период экономики. – Берлин, Германия, 2004.

³ Vincent Blok, Renate Wesselink, Oldrich Studynka, Ron Kemp —Encouraging sustainability in the workplace: a survey on the pro-environmental behaviour of university employees! *Journal of Cleaner Production* Volume 106, 1 November 2015, Pages 55-67 (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0959652614007914>).

⁴ Oliver Masakure The effect of employee loyalty on wages *Journal of Economic Psychology* Volume 56, October 2016, Pages 274-298 (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S016748701530009X>).

⁵ Болдарев А.Н. Управление инвестициями в создании и развитии инфраструктуры с использованием государственного партнерства (на примере морских портов) – М., 2000.; Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009.; Инновационный менеджмент: учеб. пособ. /Под ред.

nisbatan nazariy va uslubiy masalalar tadqiq qilingan. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish omillariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan mutaxassislardan Y.P.Ilin, D.N.Uznadze, P.V.Simonov, G.Atamanchuk, N.I.Shatalova, V.I.Kovalev va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Innovatsion-investitsion jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlar X.Amonov, N.Yo'ldoshev, N.Karimov, N.Maxmudov, Sh.Majidov, N.Oblomurodov, U.Shodmonova, D.G'ozibekov, mintaqalarda investitsion faollikni oshirish muammolari esa B.T.Bayxanov, K.Q.Ismailova, L.R.Shayusupova va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bayon etilgan⁶. Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari M.Sharifxo'jayev, Sh.Zaynutdinov, D.Rahimova, S.G'ulomov⁷ning ilmiy tadqiqotlari xodimlarni rag'batlantirish menejmentining muammolari va uning rivojlanish xususiyatlariga bag'ishlangan. Shu bilan birga ushbu ilmiy tadqiqot ishlarida yengil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan tikuvchilik-trikotaj tarmog'ida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha to'liq o'rganilmagan.

Tadqiq etilayotgan muammoning yetarlicha to'liq o'rganilmaganligi, sanoat korxonalarini, xususan, to'qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish zarurati tadqiqot ishi mavzusining maqsad va vazifalari doirasini belgilab berdi.

Tadqiqot mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Л.Н. Оголевой. – М.: ИНФРА-М, 2008.; Лаптева Е.А. Развитие методов оценки инновационного потенциала промышленных предприятий: автореферат дис...к.э.н. – Саратов, Россия: Саратовский государственный технический университет имени Ю.А. Гагарина, 2014. -28с.; Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент: Учебник для вузов. 6-е изд. –СПб.: Питер, 2008. -448с.; Цицарова М.Н. Инновационный менеджмент: учеб.пособ. –Ульяновск: УлГТУ, 2009. -195с. Бовин А.А., Чередникова Л.Е., Якимович В.Я. Управление инновациями в организации: учеб.пособ. -М.: Омега-Л, 2006. -415с.

⁶ Ғозибеков Д. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари. Банк-молия академияси. – Т., 2000.; Каримов Н. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётига қўйиладиган хорижий инвестициялар ва уларнинг молиявий таъминланиши. Банк-молия академияси. – Т., 1998.; Амонов Х. Хорижий инвестицияларни хусусийлаштириш шароитида жалб қилиш. Банк - молия академияси. – Т., 2002.; Шаюсупова Л.Р. Ўзбекистон Республикасида телекоммуникация соҳасининг ривожига хорижий инвестицияларни жалб қилиш, Иқтисодиёт институти. – Т., 2001.; Исмаилова К.Қ. Ўзбекистонда инвестиция бозори ва уни такомиллаштириш йўллари. Иқтисодиёт институти. – Т., 2003.; Байханов Б.Т. Тўқимачилик sanoati корхоналарида инвестициядан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш жараёнларини моделлаштириш. Дисс. и.ф.н. 2010.; Маджидов Ш.А. Повышение эффективности инвестиционной деятельности в шелковой промышленности. Авт.дисс. к.э.н. Институт Экономики АН Узб., 2010.

⁷ Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – Т., 2008. – 656 б.; M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev. Menejment. Darslik. – Т.: О'qituvchi, 2001. – 395 б.; Rahimova D.N. va boshqalar. Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Т.: - G'ofur G'ulom ijodiy uyi, 2009. – 50 б.; Zaynutdinov Sh.N., Nurimbetov R.I. Personalni boshqarish. – Т.: Yangi yo'l poligraf servisi, 2007. – 320 б.; Гулямов С.С. Управление персоналом в коммерческом банке (на примере Республики Узбекистан). Автореферат дисс. на соискание уч. ст. к.э.н. – Ташкент-Москва, 2001. – 20 с.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlashni rag'batlantirish omillarini asoslash;

sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishlari va zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilish;

to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatini tahlil qilish;

to'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda KPI ni qo'llash usullarini tadqiq etish;

to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini asoslash;

to'qimachilik sanoati korxonalarida ekonometrik modellashtirish asosida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish yo'llari bo'yicha takliflar berish;

korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalarida, xususan "SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS" MCHJ, "MERGANTEKS" MCHJ, "G'AYRAT CHODAK" MCHJ hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini sanoat korxonalarida, xususan to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, ilmiy umumtahlil, taqqoslash, ekspert baholash va matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "innovatsion jarayon", "innovatsion faoliyat", "innovatsion soha", "innovatsion loyiha", "innovatsion dastur" tushunchalarining o'zaro farqlanishiga aniqlik kiritish asosida innovatsion jarayonlar va ularni boshqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ko'ra to'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari asoslangan;

to'qimachilik korxonalarida mahsulot, jarayon, marketingga oid va tashkiliy innovatsiya turlarining murakkablik darajasi va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, tegishli innovatsiyani joriy etishda ishtirok etgan xodim yoki xodimlar guruhiga bir martalik rag'batlantirish bilan bir qatorda innovatsiya keltiradigan moliyaviy natijaga mutanosib ravishda moddiy rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan muntazam to'lab boriluvchi to'lovni joriy etish taklifi asoslangan;

to'qimachilik korxonalarida turli ishlab chiqarish jarayonlariga ixtisoslashgan tuzilmalar (brigada, sex, bo'lim va h.k.) kesimida innovatsion faoliyatga layoqati va moyilligi bo'lgan ishchi va mutaxassislardan shakllantirilgan ijodiy guruhlarni tegishli ilmiy-eksperimental sharoit va muhit bilan ta'minlash orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirishni takomillashtirish taklifi asoslangan;

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi to‘qimachilik korxonalarida innovatsion omillar ta‘sirini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishning tarmoqqa xos xususiyatlari asoslangan;

to‘qimachilik korxonalarini innovatsion rivojlantirish dasturlari va ularning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish vazifalari asoslangan;

to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish yo‘llari belgilab berilgan;

to‘qimachilik korxonalarining tashkiliy-texnik darajasini oshirishni motivatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlarning innovatsiyalarni boshqarish bo‘yicha ilmiy-amaliy qarashlarini, tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan uslubiy yondashuv va usullarni, rasmiy manbalardan olingan ma‘lumotlarni, shuningdek, taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiqi qiyosiy tahlil etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. To‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish, rag‘batlantirish mexanizmining nazariy va uslubiy asoslari bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuvlar tadqiqotning ilmiy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy holatlar respublikamiz to‘qimachilik korxonalarini innovatsion faoliyatini rivojlantirishda, ularning raqobatbardoshligini oshirishda, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, sohani rivojlantirish dasturlarini va strategiyalarini ishlab chiqishda boshqaruv tashkilotlari tomonidan foydalanilishi mumkinligi uning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalardan Respublikamizdagi to‘qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini boshqarishda rag‘batlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To‘qimachilik korxonalarida innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “innovatsion jarayon”, “innovatsion faoliyat”, “innovatsion soha”, “innovatsion loyiha”, “innovatsion dastur” tushunchalarining o‘zaro farqlanishiga aniqlik kiritish asosida innovatsion jarayonlar va ularni boshqarish samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar yordamida to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlarini asoslashga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Инновационный менеджмент и предпринимательство” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot

universitetining 2022-yil 24-oktabrdagi 328-019-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda to'qimachilik korxonalarida innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish samaradorligini oshirishga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

to'qimachilik korxonalarida mahsulot, jarayon, marketingga oid va tashkiliy innovatsiya turlarining murakkablik darajasi va ahamiyatidan kelib chiqqan holda tegishli innovatsiyani joriy qilishda ishtirok etgan xodim yoki xodimlar guruhiga bir martalik rag'batlantirish bilan bir qatorda innovatsiya keltiradigan moliyaviy natijaga mutanosib ravishda moddiy rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan muntazam to'lab boriluvchi to'lovni joriy etish bo'yicha berilgan taklif "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga tatbiq etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023- yil 6-iyundagi 12-16 - son ma'lumotnomasi). Natijada, "SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS" MCHJ da xomashyo va materiallarga ketgan xarajatlarni 8,9 foizga qisqartirishga erishildi;

to'qimachilik korxonalarida turli ishlab chiqarish jarayonlariga ixtisoslashgan tuzilmalar (brigada, sex, bo'lim va h.k.) kesimida innovatsion faoliyatga layoqati va moyilligi bo'lgan ishchi va mutaxassislardan shakllantirilgan ijodiy guruhlarni tegishli ilmiy-eksperimental sharoit va muhit bilan ta'minlash orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirishni takomillashtirish bo'yicha berilgan taklif "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining boshqaruv faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023-yil 6-iyundagi 12-16-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar joriy etilishi hisobiga "MERGANTEKS" MCHJ da pitalash mashinalari mahsulotining notekislik koeffitsiyentini 60 %ga kamaytirishga, tarash mashinalarida xizmat ko'rsatish meyorini 1,7 marta oshirish imkoniyati yaratildi.

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi to'qimachilik korxonalarida innovatsion omillar ta'sirini hisobga olgan holda, mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston to'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini rivojlantirishning istiqbol ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023-yil 6-iyundagi 12-16-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 6 ta maqola (3tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda), 4 ta konferentsiya tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 139 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat va uni amalga oshirish usul va shakllari tadqiq etilgan, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda rag‘batlantirishni amalga oshirish mezon va ko‘rsatkichlari uslubiy jihatlari hamda to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari asoslangan.

Muallif tomonidan ushbu muammoni tadqiq etishda xorij va respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan innovatsiyalar, investitsiyalarni boshqarish borasida yaratilgan ilmiy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilingan. Uslubiy yondashuvga ko‘ra “innovatsion jarayon”, “innovatsion faoliyat”, “innovatsion soha”, “innovatsion loyiha”, “innovatsion dastur” tushunchalarining o‘zaro farqlanishiga aniqlik kiritish asosida innovatsion jarayonlar va ularni boshqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga ko‘ra to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari asoslangan.

Innovatsion jarayonlar va ularni boshqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tadqiq etilgan, hamda to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari asoslangan (1-rasm).



1-rasm. To‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari⁸

⁸ Muallif ishlanmasi.

Tadqiqot ishida ko'rsatilishicha, tashkiliy innovatsiyalar o'z navbatida mehnat taqsimotini oqilonalashtirish, kadrlar malakasini oshirish, ilg'or ish usullarini qo'llash, mehnatni meyorlashni takomillashtirish, mehnatga haq to'lashni tashkil qilishni takomillashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat intizomini mustahkamlash, yangi texnika va ilg'or texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni texnik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish, asosiy ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishni oqilonalashtirish, yordamchi ishlab chiqarishni tashkil qilishni oqilonalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish kabi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir (2-rasm).

Muallifning fikricha, to'qimachilik korxonalarida mahsulot, jarayon, marketingga oid va tashkiliy innovatsiya turlarining murakkablik darajasi va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, tegishli innovatsiyani joriy etishda ishtirok etgan xodim yoki xodimlar guruhiga bir martalik rag'batlantirish bilan bir qatorda innovatsiya keltiradigan moliyaviy natijaga mutanosib ravishda moddiy rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan muntazam to'lab boriluvchi to'lov joriy etilsa, tashkiliy innovatsiyalar samaradorligi ortadi.


Muallif tomonidan sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, muvaffaqiyatli rag'batlantirish tizimlarini yaratish bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazmasdan, ushbu sohada to'plangan ijobiy tajribani o'rganmasdan turib, yangi rag'batlantirish yo'llarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ishlab chiqilgan tizimni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sinovdan o'tgan va yaxshi tasdiqlangan motivatsion tizimlarni tadqiq etish, o'rganish kerak.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish yondashuvlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikamizda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishlari va zamonaviy holati, to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyati tahlil qilingan, hamda korxonalarda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish mexanizmi tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada ta'kidlanishicha, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi “O'zto'qimachilik sanoati” uyushmasi tarkibida 410 ta to'qimachilik korxonalarini, 10 ta mashinasozlik korxonalarini, 1330 ta tikuvchilik-trikotaj korxonalarini, shuningdek 91 ta paxta-to'qimachilik klasterlari, “Sharq liboslari” dizayn markazi, reklama va marketing agentligi, “O'zto'qimachilik eksport” tashqi savdo kompaniyasi, paxta tolasi sotuvini amalga oshirish bo'yicha “To'qimachilik brok” kompaniyasi, shuningdek to'qimachilik korxonalarini loyihalashtirish va qurilish ishlarini amalga oshiruvchi “Yengilsanoatqurilish” kompaniyalari, hamda 134 ta paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda.

To'qimachilik sanoati respublika iqtisodiyotida eng muhim o'rinlardan birini egallab turibdi, u bozorning eng muhim elementi bo'lgan xalq ehtiyoji mollari (tikuvchilik mahsulotlari, mato va gazlama va trikotaj mahsulotlari) ishlab chiqaruvchi asosiy tarmoqlardan hisoblanadi.



2-rasm. To'qimachilik korxonalarining tashkiliy innovatsiya masalalari⁹

⁹Muallif ishlanmasi.

Uyushma korxonalarida importning o‘rni bosadigan mahsulot turlaridan 250 dan ortig‘ini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. 2022-yili 2018-yilga nisbatan Respublika hududida chetdan keltiriladigan mahsulotlar hajmi 93 %ga qisqardi

2022-yilda tarmoq korxonalarida tayyor ip gazlama, shuningdek tayyor trikotaj matolari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qiymati 591mln.dollarga teng bo‘lgan jami 72 ta loyiha ishga tushirildi. Ishga tushirilgan loyihalar hisobiga jami 17165 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. 2022-yil 2021-yilga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1976,9 mln. AQSh dollariga ortdi (1-jadval).

1-jadval

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi korxonalarida 2018-2022-yillarda asosiy assortimentlar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasi¹⁰

№	Mahsulot turi	O‘lchov birl.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-y. 2018- y.ga nisbatan, %
	To‘qimachilik va trikotaj-tikuvchilik mahsulotlari	mln.dol.	3565,1	4621,8	6411,2	8388,1	11109,1	3,1 marta
1.	Paxta kalava ipi	ming t.	392,4	442,9	608,2	754,3	835,0	2,1 marta
	shu jumladan, bo‘yalgan, aralash, bambuk, akril tolali kalava ipi	ming t.	39,9	132,8	182,5	226,3	305,1	7,6 marta
2.	Tayyor gazlama	mln.m.kv	370,5	462,8	625,0	812,5	1056,0	2,9 marta
3.	Trikotaj matosi	ming t.	71,9	89,9	142,3	227,4	300,2	4,2 marta
4.	Tikuvchilik trikotaj buyumlari	mln.dona	342,2	416,0	559,8	712,2	1011,3	3 marta
5.	Paypoq mahsulotlari	mln.juft	72,9	98,4	162,9	229,9	309,3	4,2 marta

1-jadval ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, 2022-yil 2018-yilga nisbatan to‘qimachilik va trikotaj-tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7544 mln. dollarga ortdi, shuningdek, kalava ip ishlab chiqarish hajmi 442,6 ming tonnaga (213 %), tayyor gazlama ishlab chiqarish hajmi 685,5 mln. metrqa kv. (285 %), trikotaj matosini ishlab chiqarish 228,3 ming tonnaga (4,2 marta), tikuvchilik - trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish 669,1 mln. donaga (3 marta), paypoq mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 236,4 mln. juftga (4,2 marta) ortdi.

Muallif tomonidan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini rivojlantirish dasturlari va ularning innovatsion faoliyatini boshqarish holati tahlil qilingan. 2018-2022 yillarda qiymati 1854,5 mln. AQSh doll. bo‘lgan 200 ga yaqin investitsion loyiha amalga oshirilgan. Bu loyihalarning aksariyati tayyor mahsulotlar, ya’ni bo‘yalgan ip kalava, trikotaj mato, gazlamalar, trikotaj mahsulotlari va tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan (2-jadval).

¹⁰ “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasida 2018-2022-yillarda innovatsion-investitsion loyihalarni amalga oshirish dinamikasi¹¹

№	Ko‘rsatkichlar	2018y.	2019y.	2020y	2021y.	2022y.	2022-y. 2018-y.ga nisbatan%
1.	O‘zlashtirilgan innovatsion-investitsiya loyihalari soni	29	60	65	71	85	2,9 marta
2.	Innovatsion-investitsiya loyihalari qiymati, mln. doll. <i>Shu jumladan:</i>	540	550,7	829,7	474,1	836,3	154,9
	<i>O‘z mablag‘lari hisobiga</i>	186,3	274,5	268,6	136,4	216,5	116,2
	<i>Tijorat banklari krediti</i>	345,6	262,8	536,7	234,4	479,0	138,6
	<i>Xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>	8,1	13,5	24,3	103,3	140,8	17,4 marta
3.	Yaratilgan ish o‘rinlari soni	10136	10654	15568	16855	22820	2,3 marta
4.	Innovatsion-investitsiya loyihalar eksport salohiyati, mln.doll.	174,2	253,6	377,3	187,4	255,8	146,8

Loyihalar asosan, korxonalarining o‘z mablag‘lari, tijorat banklari krediti hamda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga moliyalashtirilgan. 2022-yil 2018-yilga nisbatan amalga oshirilgan innovatsion-investitsiya loyihalari hisobiga tarmoqning eksport salohiyati 81,2 mln.dollarga ortib, 12684 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

Muallifning fikricha, “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tomonidan quyidagi yo‘nalishlarda innovatsion-investitsiya loyihalarni amalga oshirish istiqbolli hisoblanadi:

tayyor gazlamalarni ishlab chiqarish (jinsi gazlamasi, tukli sochiqbop matolar, ko‘ylakbop gazlamalar);

tayyor to‘qimachilik va tikuvchilik-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish;

to‘qimachilik aksessuarlari: zontiklar, tugmachalar, molniyalar va boshqalarni ishlab chiqarish;

to‘qimachilik dastgohlari: to‘quv dastgohlari, yigiruv ishlab chiqarishi uchun ehtiyot qismlar.

Bozor talablaridan kelib chiqqan holda, mahsulot assortimentini yangilash va korxonalarini texnikaviy qayta qurollantirishda to‘siq bo‘layotgan sabablar asoslangan:

zaruriy moliyaviy resurslarning yetishmasligi;

mahsulot iste‘molchilari, marketologlar va konstruktorlar, texnolog va iqtisodchilar o‘rtasida aloqalarning yaxshi o‘rnatilmaganligi;

mavjud mashina va dastgohlarda ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan yuqori rentabelikka ega, yaxshi sotilayotgan mahsulotlar bo‘yicha ishlanmalar va yangi fikrlarning yetishmayotganligi;

yangi mahsulot turlarini joriy etish va texnikaviy qayta qurollantirish bilan bog‘liq psixologik muammolar.

¹¹ “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan “SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS” MChJda 2022-yil 11 ta yangi mahsulot modellari yaratilgan bo‘lib, bu modellarni yaratishdan maqsad, nafaqat modellarni takomillashtirish, balki ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hamdir. Tadqiqot ishida amalga oshirilgan tajriba konstruktorlik ishlari hisobiga, erkaklar maxsus kiyimini ishlab chiqarishda tannarx o‘zgarishi tadqiq etilgan (3-jadval).

3-jadval

Erkaklar maxsus kiyimi tannarxi tarkibida xomashyo va asosiy materiallar qiymatining o‘zgarishi¹²

Materiallar turi	O‘lchov birligi	Mavjud model bo‘yicha			Yangi model bo‘yicha		
		o‘lchov birligi sarf normasi	jami mahsulot uchun sarf normasi	jami mahsulot qiymati, m.s.	o‘lchov birligi sarf normasi	jami mahsulot uchun sarf normasi	jami mahsulot qiymati, m.s.
1. Ustki mato	kv.m	3,45	3450	235010	3,30	3400	214030
2. Astarlik	kv.m	2,70	2700	56970	2,55	2650	53210
3. Oraliq mato	kv.m	1,93	1930	24840	1,80	1900	24090
4. Furnitura	so‘m	847		847	819		819
5. Transport tayyorlov xarajatlari	so‘m	130		130	170		170
6. Sotiladigan qiytiqlar	so‘m	980		980	900		900
Jami xomashyo va asosiy materiallar				316817			291419

Dissertatsiyada ko‘rsatilishicha, korxonada amalga oshirilgan tajriba konstruktorlik ishlari evaziga mahsulot birligi uchun ustki mato sarfi 2,7 kv.m.dan 2,55 kv.m.ga qisqargan. Natijada “SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS” MChJ da xomashyo va materiallarga ketgan xarajatlarni 8,9 foizga qisqartirishga erishilgan.

Tahlil natijalariga asoslanib, korxonada mahsulot innovatsiyasini joriy etishga olib kelayotgan sabablar asoslangan.

Birinchidan, bozor iqtisodiyotining korxonada innovatsion faoliyatiga faol ta’sir ko‘rsatayotgan raqobat omili. Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat, shuningdek xorijiy firma mahsulotlarining bozorga kirib kelishi tarmoq korxonalarini ehtiyoj talablari qondirilmagan yoki yomon qondirilgan bozor segmentlarini izlab topishga, iste’molchilarning talabidan kelib chiqqan holda, mahsulot assortimentlari va hajmini rejalashtirishga majbur qiladi, bu esa natijada mahsulot ko‘rinishidagi innovatsiyalarning ko‘payishiga olib keladi.

Ikkinchidan, moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda, xarajatlarni kamroq talab qiladigan mahsulot innovatsiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mahsulot innovatsiyalarining salmog‘i katta bo‘lgani bilan texnologik innovatsiyalarga ketadigan xarajatlar mahsulot innovatsiyalariga nisbatan ancha yuqori darajada bo‘ladi.

Tadqiqot obyektlaridan hisoblanadigan “MERGANTEKS” MChJ korxonasi yigiruv, to‘quv hamda tikuv-trikotaj ishlab chiqarishlarini o‘z ichiga oladi. “MERGANTEKS” MChJ korxonasida innovatsion faoliyatda texnologik innovatsiyalarning o‘rni katta (4-jadval).

¹² Korxonada ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

“MERGANTEKS” MChJ korxonasi yangi texnologik jarayondagi tarash mashinalarida mahsulot sifati ko‘rsatkichlari¹³

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Korxonada	“Riter” tizimida	Farqi	
				Abs.	%
Mashina ish unumdorligi	kg/soat	20	80	60	300
Elektr energiya sarfi	kvt/soat	4,5	15,0	9,2	205,5
Ishlab chiqarish maydoni	m ²	9,0	13,5	4,5	50,0
1 metr pilta notekisligi	%	4,5	0,3	-4,2	-93,3
Piltaning chiziqli zichligi	teks	3846	5000	1154	30,0
Xizmat ko‘rsatish meyorini	Normasi	6	10	4	66,7

Muallifning fikricha, korxonaga jalb etilgan texnologik innovatsiyalar eng avvalo, sifatni oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Eng avvalo, yigirish korxonasi ilg‘or texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali sifatni oshirish kerak. Sifatli kalava ipining ishlab chiqarilishi to‘quv ishlab chiqarishidan olinayotgan gazlamaning ham sifatini ta‘minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Muallif yangi texnikaning mahsulot sifatiga ta‘sirini aniqlashda yigiruv ishlab chiqarishining o‘timlar bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan yarim tayyor va tayyor mahsulot sifat ko‘rsatkichlarini ikki xil texnologik jarayon uchun taqqoslagan.

“MERGANTEKS” MChJ korxonasi tarash-piltalash o‘timida Xitoy firmalari dastgohlari o‘rnatilgan bo‘lib, ular juda tez ishdan chiqadilar, to‘liq ta‘mirlab bo‘lmaydi, shu boisdan ham sifatni ta‘minlab bo‘lmaydi. Korxonada tarash-piltalash o‘timiga “Tryuchler” tizimidagi mashinalar o‘rnatiladigan bo‘lsa, mashinalarining bahosi ham yuqori emas, sifat ko‘rsatkichlarining ham yuqori bo‘lishi ta‘minlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, natijada tarash mashinalarida xizmat ko‘rsatish meyorini 1,7 marta oshirish imkoniyati yaratiladi.

Dissertatsiyada ko‘rsatilishicha, korxonada pilta-pilklash o‘timida o‘rnatilgan mashinalarning asosiy qismi ham ma‘naviy, ham jismoniy eskirgan. Ularda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati xalqaro standart talabiga javob bermaydi. Hozirgi kunda Yaponiyaning “Murata”, Chexiyaning “Eliteks”, Germaniyaning “Tryuchler”, Shveysariyaning “Riter” firmalarida ishlab chiqarilgan mashinalar BD-10, BD-30, DM, PS-551, SV-851, RSB, PS-552 va h.k. markalari mavjudki, ular yuqori unumdorlikka ega bo‘lishi bilan bir qatorda, yuqori sifatli mahsulot ham ishlab chiqaradilar (5-jadval).

¹³ Korxonada ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

“MERGANTEKS” MCHJ korxonasi yangi texnologik jarayondagi piltalash mashinalari mahsulotining sifatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar¹⁴

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Korxonada	“Tryuchler” tizimida	Farqi	
				Abs.	%
Mashina tezligi	m/min.	220	900	680	309,1
Mashina ish unumdorligi	kg/s	101,5	180	78,5	77,3
Elektroenergiya sarfi	kvt/s	6,2	11	5,8	93,5
Egallagan maydoni	m ²	15,0	18,0	3,0	20,0
Notekislik koeffitsiyenti	%	5,0	2,0	-3,0	-60,0
Mahsulotning chiziqli zichligi	teks (N)	3846 (N-0,26)	4761 (N-0,21)	915	23,8
Ishchining xizmat ko‘rsatish normasi	Normasi	2	2	-	-


Tavsiya etilayotgan “Tryuchler” tizimi mashinalarida ishlab chiqarilayotgan piltaning yo‘g‘onligini avtomatik ravishda nazorat qilib turuvchi moslamalar mavjud, shu sababli ularning ishlab chiqargan mahsulotlari xalqaro standartlar talabiga mos keladi. «MERGANTEKS» MCHJ korxonasi yangi innovatsion texnologik jarayonni tashkil etish hisobiga piltalash mashinalari mahsulotining notekislik koeffitsiyentini 60 %ga kamaytirishga erishildi.

Muallif tomonidan to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishning asosiy yo‘nalishini baholash maqsadida tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan “SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS” MCHJ, “MERGANTEKS” MCHJ, “G‘AYRAT CHODAK” MCHJ korxonalarining ishchi va xizmatchilari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilgan. So‘rovnomada jami 480 kishi on-layn ishtirok etgan. Rag‘batlantirish turlarining tavsiflari so‘rovnoma savollarini 5 ta katta guruhga bo‘lishga asoslangan bo‘lib, ularning har biri rag‘batlantirishning ma’lum bir yo‘nalishi haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

Birinchi guruh savollari moddiy ehtiyojlarni qondirilish darajasini aks ettiradi, haqqi moddiy rag‘batlantirish shakllarida namoyon bo‘lib, ushbu guruh savollari va “Ha” va “Yo‘q” javoblarining nisbati 3-rasmda keltirilgan.

Muallifning fikricha, birinchi guruh savollarining tahlili moddiy rag‘batlantirish darajasi ancha yuqori, odamlar ish haqi oladilar, ularga rejaning tashqari ishlarning ko‘p qismi uchun haq to‘lanadi, shuningdek ish vaqtdan yoki meyorlardan tashqari ishlar uchun ham haq olishlarini ko‘rsatadi.

¹⁴ Korxonaga ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi




3-rasm. Moddiy ehtiyojlarni qondirish darajasi¹⁵

Shu bilan birga, chetda ta‘lim olish uchun mablag‘ ajratish bo‘yicha stipendiya dasturlarini ishlab chiqish, ishchilarning hayotini sug‘urta qilish, qarilikni yaxshiroq ta‘minlash borasida ham ishlarni amalga oshirish kerak, deb tavsiya berilgan.

Muallif tomonidan “SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS” MChJ, “MORGANTEKS” MChJ, “G‘AYRAT CHODAK” MChJ korxonalarining ishchi va xizmatchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ma‘naviy rag‘batlantirish borasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalarni belgilab olishga imkon beradi (4-rasm).

Tadqiqotlar jamoada iliq, do‘stona muhitni, korporativ madaniyatni shakllantirish borasida ishlarning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini, hamda korxonah rahbarining kadrlarni nomoddiy rag‘batlantirish vositalaridan samarali foydalana olishga moyilligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mehnatning monotonligini kamaytirish, ishchi uchun mehnat faoliyatining qiziqarli bo‘lishini ta‘minlash, o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan demokratik boshqaruv uslubini kengroq qo‘llash, ko‘proq ijodiy mustaqillik berish, kadrlarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishni qo‘shib olib borish orqali rag‘batlantirish bo‘yicha ishlarning amalga oshirilishi korxonada ishchilarning innovatsion faolligini oshirishga imkon beradi, deb xulosa qilingan.

¹⁵ So‘rovnoma ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



4-rasm. Ma'naviy ehtiyojlarni qondirish darajasi¹⁶

Muallif tomonidan to'qimachilik sanoati korxonalarida ishchi xizmatchi xodimlar faoliyatini rag'batlantirishda ularning mehnati samaradorligini baholash hamda ularni yanada yaxshiroq ishlashga undashda KPI tizimini joriy etish mezonlari ishlab chiqilgan. KPI ko'rsatkichlarini har bir korxonada bo'yicha, uning har bir faoliyat sohasi uchun ham ishlab chiqish mumkin.

Muallifning fikricha, to'qimachilik korxonalarida turli ishlab chiqarish jarayonlariga ixtisoslashgan tuzilmalar (brigada, sex, bo'lim va h.k.) kesimida innovatsion faoliyatga layoqati va moyilligi bo'lgan ishchi va mutaxassislardan shakllantirilgan ijodiy guruhlarni tegishli ilmiy-eksperimental sharoit va muhit bilan ta'minlash orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirish korxonaning innovatsion faolligini, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

6-jadval

2022-yilda "SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS" MChJ innovatsion faoliyatini rag'batlantirish holatini baholashda KPIning hisobi¹⁷

Asosiy muvaffaqiyat omillari	KPI	Vazn	Maqsad	Haqiqat	KPI indeksi
Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mln. so'm)	0,3	6500	6573,2	0,3
Sifat talablarini bajarish	Sifatsiz mahsulotlar ulushi(%)	0,25	8	6	0,33
Harajatlar bo'yicha talablarni bajarish	Foydasiz harajatlar, isrof bo'lgan resurslar (mln. so'm)	0,2	165	180	0,18
Ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanish	Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, %	0,15	100	66,8	0,1
Korxonada innovatsion muhitni shakllantirish	ITTK ishlanmalari, ixtirolar soni	0,1	8	11	0,12
Ishlash nisbati					1,03

¹⁶ So'rovnomaga ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹⁷ Korxonada ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tadqiqot ishida tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan korxonalarda o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga asoslangan holda, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning KPI ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan (6-jadval).

